
XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING 68 - SESSİYASI BO'LIB O'TDI

Sessiyada sektor rahbarlari, tuman hokimi o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalalarga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Sessiya ishiga tuman hokimi, Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi Abduqahhor Djurabayev raislik qildi va olib bordi.

Sessiyada kun tartibiga kiritilgan quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

Dastlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-sonli Qarori ijrosi yuzasidan sektor rahbarlarining 2023 yil birinchi choragi davomida hududlarda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti tinglandi.

Navbatdagi masalada, tuman "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'larini sarflanishi to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihalari bir ovozdan qabul qilindi.

2023-03-30 18:20:35